

DINSHUNOSLIK FANINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI HAMDA ISTIQBOLLARI

Toshkent Davlat Transport Universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası dotsenti,

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultanov Sirojbek Xabibullayevich

+998-94-620-35-10

Toshkent Davlat Transport Universiteti Aviatsiya Transporti Muhandislighi

fakulteti 1-bosqich talabasi

Mansurov Valililloh Muhsinjon o'g'li

+998-50-754-16-81

Dunyodagi barcha dinlar va ular bilan bog'liq jarayonlarni xolisona o'rganuvchi fan «Dinshunoslik» deb ataladi. Mazkur fanning sohalari juda ko'p bo'lib, ulardan biri «Dunyo dinlari tarixi»dir. Dinlarni o'rganish uzoq tarixga ega. Antik davrlardayoq insonlar din va uning mohiyati haqida fikr yuritganlar. Rim imperatori Konstantin I davrida (IV asr) xristian dini boshqa dinlar bilan bir mavqega ega bo'ldi. Keyinchalik Yevropada xristianlik dinining Rim imperiyasi tomonidan davlat dini sifatida e'tirof etilishi hamda cherkovning asta-sekin hokimiyatni qo'lga olishi natijasida ilm-fan ham xristianlik ta'siriga tushib qoldi. VII-VIII asrlarda o'sha davrda mavjud dinlar haqida kichik risolalar paydo bo'lgan. VIII-IX asrlarda esa dinlar tarixi va ta'limotlariga oid ilk kitoblar yaratildi. XIX asrga kelib Yevropa mintaqasida cherkovning ta'siri kamaydi.

VII-VIII asrlarda o'sha davrda mavjud dinlar haqida kichik risolalar paydo bo'lgan. VIII-IX asrlarda esa dinlar tarixi va ta'limotlariga oid ilk kitoblar yaratildi. XIX asrga kelib Yevropa mintaqasida cherkovning ta'siri kamaydi. Natijada boshqa fanlar qatori dinshunoslik fani ham cherkov ta'siridan chiqa boshladi. Shu davrda Maks Myullerning «Qiyosiy mifologiya», «Dinlarning asosi va shakllanishiga oid ma'ruzalar» nomli asarlari nashrdan chiqdi.

Keyinchalik Myuller mashhur Oksford universitetida dinlar tarixidan

ma'ruzalar o'qigan va birinchi bo'lib «dinshunoslik» atamasini iste'molga kiritgan. Shu yo'sinda, dinshunoslik Parij, Bryussel va Rim universitetlarida fan sifatida o'qitila boshlangan. Sobiq Sovet Ittifoqi davrida dinshunoslik fani, asosan, dinlarni tanqid qilish va «eskilik sarqiti» ekanini isbotlash uchun o'rganildi.

Islom olamida qiyosiy dinshunoslik sohasida ham salmoqli ishlar qilingan. Ulardan Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», Ibn Nadimning «Ko'rsatkich», Muhammad ibn Huzaylning «Majusiylilik va ko'pxudolik kitobi», AbulAbbos Ahmad ibn Muhammad Saraxsiyning «Sobiylarning mazhablari vasfi haqida risola», Abu Zayd Balxiyning «Dinlar shariatlari kitobi» asarlarini sanab o'tish mumkin.

Dinshunoslik fani ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan uzviy bog'liq holda shakllangan, rivojlangan va hozirda ham shu jarayon davom etmoqda. O'zbekiston Rossiya imperiyasi tarkibida bo'lgan va jahon hamjamiyatidan ajratilib yashagan bir davrda, G'arbda XIX asrning o'rtalarida vujudga kelgan dinshunoslik fani ancha yo'l bosib o'tib, ko'plab ilmiy natijalarga erishdi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston tadqiqotchilari bu yangi soha bilan yaqindan tanishib, mutaxassis kadrlarni tarbiyalay boshladilar. Ular dinshunoslikni sotsiologiya, psixologiya, filosofiya, antropologiya, filologiya, tarix fanlari bilan bog'liq holda o'rganishlari kerak. Zero, dinshunoslik fani mazkur fanlar bilan hamkorlik qilib tutashgan yerida uning turli sohalari vujudga kelgan.

Darhaqiqat, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, tarbiyachilar oldiga qo'yilgan vazifalar o'ta ulkan bo'lishi bilan birga juda mas'uliyatli hamdir. Chunki, «amaldagi davlat va jamiyatimiz qurilishida, iqtisodiyotimiz va ma'naviyatimizni shakllantirishda mutlaqo yangi-yangi qadamlar qo'yilmoqda, zamon talablariga hamohang o'zgarishlar ro'y bermoqda, ammo maktab va o'quv yurtlarida bolalarimizga, ertaga bizning o'rnimizni bosishi lozim bo'lgan o'z farzandlarimizga daqqiyunusdan qolgan darslik va kitoblar asosida bilim va tarbiya bermoqdamiz. Bunday achinarli holatlarga barham berish vaqti keldi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda dinga yangicha qarash va munosabat bildirish imkoniyati tug'ildi. Natijada biz uchun nisbatan yangi bo'lgan

dinshunoslik fani vujudga keldi. Bu fan ilgari ateizmdan farqli o'laroq dinni tanqid qilish, uni jamiyatdan yo'qotish maqsadida emas, balki unga milliy ma'naviyatning bir bo'lagi sifatida yondashib, uni xolisona o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

O'zbekiston ko'p millatli va ko'p konfessiyali mamlakat bo'lib diniy bag'rikenglik va ma'rifatparvarlikga an'analarga egadir. Mustaqillik yillarida diniy bilimlarni o'rganish va targ'ib qilish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Dinshunoslik fanining ta'lim tizimidagi o'rni tobora ortib, u yosh avlodga diniy bag'rikenglik, milliy qadriyatlar va dunyoviy bilimlarni uyg'unlashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hukumat tomonidan olib borilayotgan oqilona islohatlar va ilmiy tadqiqotlar natijasida dinshunoslik fani rivojlanib zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga moslashmoqda. Diniy bilim hamda dunyoviy ta'lim uyg'unligi jamiyat rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimining barcha yo'nalishlarda o'qitilayotgan dinshunoslik fanining nazariy metodologik muammolari va ularni bartaraf etish zarurligi jamiyatimizning bugungi va ertasi millat taqdiri uchun muhim kasb etadi. Eski arava konstruksiyasi bilan zamonaviy raketa qurib bo'lmagandek, eskicha qarash va yondashuvlar bilan hayotni qurib bo'lmaydi. Talabalarga, yangilanayotgan O'zbekistonda jamiyat hayotini yangilash, ya'ni ijtimoiylashgan davlat, fuqorolik jamiyatining amal qilish tamoyillarini tushuntirishda ijtimoiy fanlar xususan, dinshunoslikning ahamiyati beqiyos o'rin kasb etadi, va dinshunoslik fanini o'qitishda, qadimgi va hozirgi zamon diniy maktablari, xususan, islom diniy ta'limotlarini o'rganish bilam bir qatorda, Vatanimizdan yetishib chiqqan buyuk mutaffakkir, din ulamolarni merosini ham talaba yoshlar ongiga singdirib borish zarurdir.

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimida o'qitilayotgan ijtimoiy fanlar, xususan, dinshunoslik fanidagi mavjud nazariy metodologik muammolarni bartaraf etish jarayonida milliy taraqqiyot g'oyasi teologik ta'limotlardan foydalanish foydalidir. So'fiylik teologik ta'limoti insonni ilohiy fazilatlar nurida tarbiyalaydi, yomon axloqlardan saqlaydi. Dinshunoslik fanini o'qitishda dunyo dinlarining kelib

chiqishi va jamiyat hayotida uning amal qilishi tog'risidagi g'oyalar, qarashlar bir tomonlama tushuntirilishiga yo'l qo'ymaslik kerak bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga kirib borayotgan bir sharoitda turli konfessiya vakillari bilan muloqot qilishning yuksak madaniyatiga erishish katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham dinshunoslik fanining yana bir vazifasi talabalarni turli dinlarning kelib chiqishi, taraqqiyoti tarixi, ta'limoti, asosiy manbalari, hozirgi davrdagi holati, ma'lum xalq hayotida tutgan o'rni haqida umumiy ilmiy tushunchalar berib, ularda mazkur din vakillarini har tomonlama chuqurroq tushunib yetish va ular bilan muloqot qilishda o'zlarining buyuk ma'naviyat egasi ekanliklarini namoyon qilishlari uchun yetarli bilim bilan qurollantirishdan iborat.

O'zbek xalqining ilg'or madaniy va ma'naviy merosini tiklash va yangi sharoitda yanada rivojlantirish, ayni vaqtda bu hududdagi ilk zamondan hozirgacha mavjud bo'lib kelgan dinlarning tarixi, hayotiy tajribasi, tadrijiy taraqqiyotini o'rganish talabalarda Vatan tarixini chuqurroq tushunib yetish, uni sevish va u bilan faxrlanish his-tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

Dinshunoslik fani talabalarda din, uning turli shakllari, ta'limotlari, yo'nalishlari, mazhablari haqida to'g'ri ilmiy xulosalar chiqara oladigan, diniy va dunyoviylik munosabatlarini asosli tahlil qila oladigan to'g'ri dunyoqarashni shakllantiradi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonun, Jinoyat, Fuqarolik, Oila kodekslaridagi din va vijdon erkinligi haqidagi ko'rsatmalar, qoidalar dasturul amal bo'lib xizmat qilishi lozim. Din va qonun o'zaro munosabatlarini yaxshi bilish Respublikada demokratik, huquqiy jamiyat qurish poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuning uchun ham mamlakatimizda talabalarga dinshunoslik fanini o'qitish muhim masalalardan biriga aylandi. Ushbu fan bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratish, buning uchun chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish, chet ellik mutaxassislar bilan ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'yish mazkur ishni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston davlatining asosiy tamoyilaridan biri diniy bagrikenglikni

taminlashdir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni bo'lib o'tgan referendum orqali yangilangan O'zbekiston Konstitutsiyasida ham diniy erkinlik, diniy ta'lim va ekstrimizmga qarshi kurashish kabi masalalar yanada aniqroq qilib belgilab berildi. Yangilangan konstitutsiyamizning 31-moddasiga ko'ra "Har bir fuqoro vijdon erkinligiga ega ekani, ya'ni o'z e'tiqodiga ko'ra din tutish yoki tutmaslik huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan. Hech kim o'z e'tiqodi sababli kamsitilishi yoki majburlanishi mumkin emas".

Psixologiya fani tarmoqlari murakkab hodisa bo'lgan dinni inson ruhiyati bilan bog'liq holda tahlil qilganlar. Buning natijasida din psixologiyasi fani shakllangan va rivojlangan. Shuning uchun ham dinshunoslik asoslarini o'rganishda psixologiya fanining ko'p sonli yutuqlariga suyanish muhimdir.

Muayyan jamiyatda diniy ta'limotning tarqalishi, uning kishilar ongiga ta'sir darajasi (diniy ong darajasi), ijtimoiy va madaniy-ma'naviy hayotga ta'siri va rolini aniqlash maqsadida sotsiologik tadqiqotlar xulosalariga murojaat qilinadi. Keyingi ikki asr davomida dinni ijtimoiy hodisa sifatida o'rganuvchi din sotsiologiyasi fani barq urib rivojlandi.

Dinning ta'rifi, tavsifi, ta'limoti va ijtimoiy hayotdagi o'rnini o'rganishda turli yondashuvlar mavjud, masalan: 1) ilohiyot (teologiya) fani jihatidan; 2) tanqidiy-ateistik va 3) ilmiy nuqtai nazardan. Kishilik jamiyati uchun har qaysi yondashuv natijasida to'plangan ilmiy, amaliy, tarixiy, falsafiy ma'lumotlar juda katta ahamiyat kasb etadi.

Bulardan tashqari dinshunoslikning din antropologiyasi, din fenomenologiyasi, din etnologiyasi, din tarixi, din aksiologiyasi, din geografiyasi, din tipologiyasi kabi sohalari mavjudki, ularning yutuqlaridan ham dinshunoslik fanini o'qitish va o'rganishda foydalanish mumkin.

Hozirgi fan va texnika taraqqiyoti sharoitida dinshunoslik fanini faqat so'z yordamida o'qitish yaxshi samara bermaydi. Shuning uchun dasturning mazmunidan kelib chiqib texnik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, audio, video, kinoapparat va kompyuterlar yordamida dinlarning kelib chiqishi, tarixi, diniy yo'nalishlari, mazhablari haqida hikoya qiluvchi o'quv

filmlari, slaydlarni namoyish etish uchun kompaktdisklar, xarita, sxema, fotosurat va boshqalardan foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 maydagi “Abu Ali Ibn Sino merosi majmuasini barpo etish to'g'risida”gi №1681-sonli Farmoyishi.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017
4. Abduhalimov B. A. “Bayt al-hikma” va O'rta Osiyo olimlarining Bag'doddagi ilmiy faoliyati: (IX-XI asrlarda aniq va tabiiy fanlar). -T., Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2004. – 236 b.
5. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqning falsafiy tafakkuri. T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2010
6. Bertels D. Predislovie // Mes Adam. Musulmanskiy Renessans. -Moskva: Nauka, 1973.